



**UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA HUDUDLARNING IJTIMOYIY-IQTISODIY
RIVOJLANISHIDA KASBIY PEDAGOGIKA MAHORAT
MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

Xudoyqulova Dilafruz Misirovna

Yarashova Lobar Yunusovna

Termiz davlat pedagogika instituti talabalari

Annotatsiya. Mazkur maqolada uzluksiz ta'lim tizimining hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi o'rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Kasbiy pedagogika mahoratining shakllanishi va takomillashuvi jarayonidagi mavjud muammolar ko'rib chiqilib, ularni bartaraf etishga qaratilgan samarali mexanizmlar yoritilgan. Xususan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasi, pedagoglarning uzluksiz malaka oshirish jarayonlari, innovatsion metod va texnologiyalarni joriy etish, shuningdek, rag'batlantirish tizimini takomillashtirish masalalariga e'tibor berilgan.

Аннотация:

В статье анализируются роль и значение системы непрерывного образования в социально-экономическом развитии регионов. Рассматриваются существующие проблемы в процессе формирования и совершенствования профессионально-педагогического мастерства и предлагаются эффективные механизмы, направленные на их устранение. В частности, уделяется внимание вопросам интеграции образования и производства, процессам непрерывного профессионального развития педагогических кадров, внедрению инновационных методов и технологий, а также совершенствованию системы стимулирования труда.

Anotation:

This article analyzes the role and importance of the continuing education system in the socio-economic development of regions. The existing problems in the process of formation and improvement of professional pedagogical skills are considered, and effective mechanisms aimed at eliminating them are highlighted. In particular, attention is paid to the issues of integration of education and production, processes of continuous professional development of teachers, introduction of innovative methods and technologies, as well as improvement of incentive system.

Kalit so'zlar:uzluksiz ta'lim, kasbiy pedagogika, hududiy rivojlanish, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot, pedagogik mahorat, innovatsion ta'lim texnologiyalari,



Learning and Sustainable Innovation

integratsiya, malaka oshirish.

Ключевые: непрерывное образование, профессиональная педагогика, региональное развитие, социально-экономическое развитие, педагогическое мастерство, инновационные образовательные технологии, интеграция, повышение квалификации.

Keywords: continuing education, professional pedagogy, regional development, socio-economic development, pedagogical skills, innovative educational technologies, integration, advanced training.

Kirish: Globallashuv va axborotlashuv jarayonlari sharoitida uzluksiz ta'lim tizimi jamiyat taraqqiyotining asosiy omillaridan biri sifatida maydonga chiqmoqda. Hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi malakali kadrlar tayyorlash samaradorligiga bevosita bog'liq bo'lib, bunda kasbiy pedagogika mahoratini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Uzluksiz ta'lim - o'zaro mantiqiy izchillik asosida bog'langan hamda soddadan murakkabga qarab rivojlanib boruvchi va birbirini taqozo etuvchi bosqichlardan iborat yaxlit ta'lim tizimi. O'zbekiston Respublikasida kadrlar tayyorlash tizimining asosi, ta'lim sohasida davlat siyosatining asosiy tamoyillaridan biri. 1997-yil 29 avgustda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni va Kadrlar tayyorlash milliy dasturida alohida tamoyil sifatida qayd etilgan. Uzluksiz ta'lim milliy modelning asosiy tarkibiy kismalaridabiri (qarang Ta'limning milliy modeli), O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlovchi, shaxs, jamiyat va davlatning iqtisodiy, ijtimoiy, ilmiy texnikaviy va madaniy ehtiyojlarini qondiruvchi ustuvor sohadir. Uzluksiz ta'lim ijodkor, ijtimoiy faol, ma'naviy boy shaxs shakllanishi va yuqori malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlash uchun zarur shartsharoitlar yaratadi. Uzluksiz ta'lim tizimining faoliyat olib borishi davlat ta'lim standartlari asosida, turli darajalardagi ta'lim dasturlarining izchilligi asosida ta'minlanadi va maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus, kasbhunar ta'limi, oliy ta'lim, oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim, kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash, maktabdan tashqari ta'limni o'z ichiga oladi [4].

1. Uzluksiz ta'lim kadrlar tayyorlash tizimining asosi, O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlovchi, shaxs, jamiyat va davlatning iqtisodiy, ijtimoiy, ilmiy texnikaviy va madaniy ehtiyojlarini qondiruvchi ustuvor sohadir. Uzluksiz ta'lim ijodkor, ijtimoiy faol, ma'naviy boy shaxs shakllanishi va yuqori malakali raqobatbardosh kadrlar xamtayyorlanishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratadi. O'zbekiston Respublikasida uzluksiz ta'lim kadrlar tayyorlash tizimining



asosi, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlovchi, shaxs, jamiyat va davlatning, ilmiy-texnikaviy vama'daniy ehtiyojlarini qondiruvchi ustuvor soha bo'lib, ijodkor, ijtimoiy faol, ma'naviy boy shaxsning shakllanishi va yuqori malakali raqobatbardosh kadrlarning jadal tayyorlanishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi[3].

2. Oliy ta'lim bakalavriat ta'limyo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo'yicha yuqori malakali kadrlar tayyorlanishini ta'minlaydi. Oliy ma'lumotli kadrlarni tayyorlash oliy ta'lim tashkilotlarida (universitetlar, akademiyalar, institutlar, oliy maktablar) amalga oshiriladi. Umumiy o'rta (o'n bir yillik ta'lim), o'rta maxsus (to'qqiz yillik tayanch o'rta va ikki yillik o'rta maxsus ta'lim), boshlang'ich professional ta'lim (to'qqiz yilliktayanch o'ta va ikki yillikboshlang'ich professional ta'lim) olgan shaxslar, shuningdek ushbu Qonun kuchgakirgunigaqadar o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi (to'qqiz yillik umumiy o'rta va uch yillik o'rta maxsus, kasbhunar ta'limi) olgan shaxslar oliy ma'lumot olish huquqiga ega. Oliy ta'lim ikki bosqichga — bakalavriat va magistratura bosqichiga ega[5].

Bakalavriat oliy ta'lim yo'nalishlaridan biri bo'yicha chuqurlashtirilgan bilim, malaka va ko'nikmalar beradigan, o'qish davomiyligi kamida uch yil bo'lgan tayanch oliy ta'limdir. Magistratura tegishli bakalavriat negizidagi aniq mutaxassislik bo'yicha o'qish davomiyligi kamida bir yil bo'lgan oliy ta'limdir. Magistratura mutaxassisliklarining va ularga muvofiq bo'lgan bakalavriat ta'lim yo'nalishlarining ro'yxati ta'lim sohasidagi vakolatli davlat boshqaruvi organi tomonidan belgilanadi. mamlakatimizda uzluksiz ta'lim tizimi oldida turgan vazifalarning asosiylaridan biri, so'zsiz, hozirgi tez o'zgarib borayotgan dunyoda mustaqil qarorlar qabul qila oladigan, tizimli tahlil va samarali muloqatga qodir ijtimoiy va shaxsiy muammolarni mustaqil amalga oshira oladigan jamiyat a'zosi, shaxsni tayyorlashdan iborat. Jahon oliy ta'lim tizimida ta'lim sifatini ta'minlash borasidagi zamonaviy tendensiyalardan kelib chiqib, mamlakatimizda pedagog kadrlar tayyorlash mazmunini kompetensiyaviy yondashuv asosida tubdan takomillashtirish, xalqaro standartlar va milliy an-analar uyg'unligida yuqori malakali, zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega, mustaqil fikrlaydigan, vatanparvar, professional kadrlarni tayyorlash belgilab berildi[6].

O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Kotsepsiyasida «o'quv jarayonini amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirish, kompetensiyalarni kuchaytirishga qaratilgan metodika va texnologiyalarni joriy etish, akademik bilim va amaliy ko'nikmalar bog'liqligini mustahkamlash» kabi vazifalar alohida ta'kidlab o'tilgan. Ushbu vazifalar pedagog kadrlar tayyorlash borasida sifat o'zgarishlarini amalga oshirishni taqazo etadi[1].



Pedagogika oliy ta'lim muassasalarida ta'lim xizmatlarini ko'rsatish yo'llari, pedagogik ta'lim mazmuni, ta'lim jarayonini tashkil etish mexanizmlarini takomillashtirishni ko'zda tutadi. Bu borada quyidagilar ustuvor ahamiyat kasb etadi: pedagogika oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini kompetensiyalarni takomillashtirishga qaratilgan yondashuv va tamoyillar asosida tashkil etish, ta'lim mazmunini (DTS, o'quv reja, fan dasturlari) ilg'or joriy tajribalar asosida takomillashtirish; individual ta'lim traektoriyalariga asoslangan o'quv dasturlarini shakllantirish, o'quv jarayonini kredit-modul tizimi asosida tashkil etish mexanizmlarini ishlab chiqish; zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va ta'lim texnologiyalarining ustahkam integratsiyasi asosida pedagog kadrlar tayyorlash sifatini ta'minlash; bo'lajak o'qituvchilarda ilg'or xorijiy tajribalar va milliy an'analar hamda zamonaviy axborotkommunikatsiya va ta'lim texnologiyalari integratsiyasi asosida[7].

Ta'lim oluvchilarning o'quv yutuqlarini baholash kompetensiyalarini takomillashtirish. Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini zamonaviy yondashuvlar asosida rivojlantirish jahon miqyosida ta'lim sifatini oshirish va tayyorlash tiziminining ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Xususan, jahon andozalari darajasida yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining baholash kompetentligini takomillashtirish masalalari dolzarbdir. Ilmiy-pedagogik adabiyotlarda ushbu tushunchaga turli tuman ta'riflar berilgan bo'lib, ularni umumlashtirish natijasida xulosa qilish mumkin: baho bu faoliyat turi bo'lib, uning asosida standartlar talablari, ishlab chiqilgan vatasdiqlangan mezonlar, baholash ko'rsatkich va indikatorlari yotadi. Ular asosida esa ta'lim obyektlari, shart-sharoitlari va natijalarini baholash tavsiflarini taqqoslash amalga oshiriladi[2].

4. Umumiy o'rta ta'lim maktablarini isloh qilishning asosiy maqsadi - shaxsni har tomonlama kamol toptirish hisoblanadi. Pedagogik tashxislashda maktab o'quvchilarining o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Boshlang'ich ta'lim o'qishga va ijtimoiy-foydali mehnatga halol munosabatni, Vatanga muhabbatni tarbiyalasa, umumiy o'rta va keyingi bochiqichda aynan shu munosabatlar bilan birga ta'limiy-tarbiyaviy va kamol toptirish vazifalarini ajratish, bilimlarni o'zlashtirish hamda zarur shaxsiy sifatlarni shakllantirish, takomillashtirish uchun yaxshi sharoitlar vujudga keladi. O'qish jarayonida qarashlar va ma'naviy sifatlarni ham shakllanadi, ya'ni mazkur funksiyalarning birligi va o'zaro bog'liqligi kuzatiladi[8].

Xulosa. Uzlüksiz ta'lim bugungi kunda global miqyosda o'zining ahamiyatini yanada oshirmoqda. Tez rivojlanayotgan texnologiyalar va doimiy o'zgarib turuvchi mehnat



bozori sharoitida, insonlarning raqobatbardoshligini saqlab qolish va hayot davomida o'zlarini rivojlantirib borishlari uchun uzluksiz o'rganish zarur bo'lib qolmoqda. Uzluksiz ta'lim shaxsga yangi ko'nikmalar va bilimlarni o'zlashtirib, mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan sohalarda muvaffaqiyatli ishlash imkonini beradi. Bu, ayniqsa, tez o'zgarib turuvchi texnologiyalar davrida muhim ahamiyatga ega. O'zgaruvchan sharoitlarga moslashish qobiliyati zamonaviy dunyoda juda muhimdir. Uzluksiz ta'lim shaxsga turli vaziyatlarga moslashish va yangi vazifalarni o'z zimmasiga olish imkonini beradi. Milliy miqyosda uzluksiz ta'lim iqtisodiy o'sishga hissa qo'shadi. Malakali va bilimdon ishchi kuchiga ega bo'lgan mamlakatlar yanada raqobatbardosh va boy bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- Shavkatovna, X. M., & Qizi, S. R. B. (2024). INKLYUZIV TA'LIM: GLOBAL TAJRIBA VA O'ZBEKISTON MODELI. *Research Focus*, 3(11), 117-123.
1. Xolova M, Amirqulova M. QUALIFIED TEACHER–EFFECTIVE LESSON ORGANIZER. In INTERNATIONAL CONFERENCE ON INTERDISCIPLINARY SCIENCE 2024 (Vol. 1, No. 12, pp. 285-289).
 2. Xo'jamurodova, F., & Xolova, M. (2024). OILAVIY MUNOSABATLAR MUAMMOSINING IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK ASOSLARI. In CONFERENCE ON THE ROLE AND IMPORTANCE OF SCIENCE IN THE MODERN WORLD (Vol. 1, No. 11, pp. 63-66).
 3. Shavkatovna, X. M. (2023). DEVELOPMENT OF HEALTHY THINKING IN STUDENTS. *Academia Repository*, 4(10), 90-94.
 4. Shavkatovna, X. M., & Akbarovna, N. D. (2024). GENDER YONDASHUV ASOSIDA TALABA-QIZLARDA TANQIDIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI. *O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI*, 3(35), 494-498.
 5. Saydulloyevich, Ochilov Y., and Xolova M. Shavkatovna. "Scientific Activity and Spiritual Heritage of Imam Ghazali." *European Scholar Journal*, vol. 3, no. 6, 10 Jun. 2022, pp. 19-22.
 6. Saydulloyevich, O. Y., & Shavkatovna, X. M. (2022). Scientific activity and spiritual heritage of Imam ghazali. *European Scholar Journal*, 3(6), 19-22.
 7. Saydulloyevich, O. Y., & Shavkatovna, K. M. (2021). Developing Healthy Thinking In Students As A Pedagogical Problem. *European Journal Of Life Safety And Stability (2660-9630)*, 12, 424-429.